



NO AN'ANAVIY USULLAR ORQALI GEOGRAFIYA DARSINI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI

Xolpo'latov Sahobiddin

Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567314>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2023

Accepted: 24th January 2023

Online: 25th January 2023

KEY WORDS

Innovatsiya, didaktik o'yinlar, metodlar, usul, natija, pedagog, usullar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitish va uning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladigan innovatsion o'yinlarning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Geosiyosat asoslari tarmoqlarining shakllari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiyaning o'quvchilarga qiziqarli, shubilan birga qiyin o'zlashtirilayotgan qismi bu Geosiyosat asoslari bo'limidir. Geosiyosat asoslari bo'limi ham uch bobdan iborat bo'lib, uning har bir mavzusi o'quvchi uchun qiziqarli, uning hayotiy tajribasiga yaqin va tushunarlidir.

Ushbu bo'limni o'qitishda o'quvchi-talabalarni solishtirish yoki bo'lmasa, tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilishga alohida urg'u berish, bilim va ko'nikmalarni hosil qilishning eng maqbul usullaridan hisoblanadi.

Solishtirish metodi mohiyatini Xitoylik olimlar X.Shuva N.Chjoular to'la ochib beradilar: «Agarda millat va qit'qid o'zining turgan joyini tarixiy yoki "vertikal" solishtirishlar bilan aniqlayolsa shunda u millatlararo yoki "gorizontal" solishtirishlar yordamida dunyodagi o'z o'rni to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega bo'ladi {1}.

"O'zbekistonning geosiyosiy o'rni" mavzusini o'qitishda o'quvchilarni faollashtirish va darssamaradorligini oshirish uchun muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan treninglardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi-o'quvjarayonini loyhalashtirish hisoblanadi. Bujarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- . Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
- . Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
- . Ta'lim usullarini eng maqbullarini tanlash.
- . O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
- . Darsturini tanlash va texnologik xaritasini ishlab chiqish {2}.

Dars maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, darsjarayonida aynan ular yetakchi o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Demak, biztanlagan mavzubo'yicha treningning maqsadi-o'quvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, muammoni yechish uchun turli xildagi mavjud vaziyatlarni taxlil qilish, solishtirish,



qiyoslash, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Trening ishtirokchilarining rollari va vazifalari:

O'qituvchi trening mazmunini, asosiy bosqichlari va ishtirokchilar va zifalari bilan tanishtiradi.

Ikki raqobatbardosh 6-8 o'quvchidan iborat guruhlar mavzuga oid qiziqarli savollar bo'yicha munozaraga kirishadilar. O'qituvchi o'yin mazmunini lozim topgan oqimiga yo'llab, uning a'zolari faolligini I ta'minlab turadi.

O'zbekistonning geosiyosiy o'rni mavzusi bo'yicha tashkil etiladigan treningda quyidagi muammoli metod va usullarni qo'llash tavsiya etiladi:

"Baliq skleti", "Mantiqiy chalkash zanjir" strategiyasi, "SWOT"taxlili, "Nilufar guli" texnologiyasi, "Skarbey", "Assesment" texnologiyalari va bir qancha metodlar bor. Ushbu metodlar bo'yicha qisqacha misollar keltiramiz.

"Baliqskleti" – talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi: o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni usulni qo'llash sharti bilan tanishtiradi; o'quvchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi; guruhlar topshiriqlarni bajaradi; guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi; jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi. "Mantiqiy "chalkashzanjir" metodi. Ushbu metod Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlar va unda O'zbekistonning tutgan o'rni bo'yicha bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Masalan: Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi transchegaraviy daryolar, O'zbekiston-Turkmaniston o'rtasidagi eksklav (tegishli davlat hududining asosiy qismidan boshqa davlat hududi bilan ajralib turgan yerlar) va ba'zi chegarahududlari, Qozog'iston bilan davlat chegarasida oxiriga yetkazilmagan delimitatsiya (chegara chizig'ini aniqlashtirib, mustahkamlash) ishlari bo'yicha yuzaga kelgan muammolar birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim geosiyosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi {3}.

"Swot-tahlil" metodi- Muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Bunda hududi yadroviy quroldan xoli bo'lgan, qo'shilmaslik siyosatini qo'llab-quvvatlovchi davlatga aylanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi sababi mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, ha lqilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi:

S- Kuchli (ustun) jihatlari (amalga oshirilayotgan xamkorlik bo'yicha mavjud muammolarning afzalliklarini yoritish);

W-Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganishadi);

O- imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlashadi);

T- Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'sirini aniqlashadi). Ushbu metodni qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib



chiqarish ehtimoli mavjud. Bundayhollarda qituvchitalabalarining bilim darajasiga moslab, uning tushunarli sifatlarini bilib olish (o'zgartirishi) mumkin {4}.

“Qaror qabul qilish” metodi. Talabalarga ma'lum masalalarni hartomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to'g'risini toppishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi muammoli vaziyatlar bo'yicha qo'llanilgan metodlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Ushbu metodni qo'llash o'rganilayotgan muammoyuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi {5}.

Xulosa. Yuqoridagi sizlarga aytib o'tgan geografiyani no'ananaviy tushinrish metodlarimiz va shu kabi o'yinlar kelajakda o'quvchining tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Hamda dars jarayonlarini qiziqarli pedagogik metodlar yordamida rivojlantirish poydevori bo'ladidegan umiddamiz.

References:

1. Allayorov R.X., Bo'ribekov M.F., Xidirov M.SH., Raxmonqulov A.N. O'zbekiston tog'-vodiy landshaftlarining ekoturistik imkoniyatlari // Geografiya va geografiya ta'limidagi muammolar. Respublika konferentsiya materiallari. – Jizzax: JDPI, 2018. B. 75-77.
2. Amanbaeva Z.A. Tog'li hududlar-geoekologik tadqiqotlar markazida // Geografiya fani va ta'limning zamonaviy muammolari. Respublikailmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.: TDPU, 2015. B. 34-35.
3. Nizomov A., Amanbaeva Z., Safarova N. O'zbekistonning ekoturistik resurslari va yo'nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. 104 b.
4. Xasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., 2016.
5. Inrenetdagi ba'zi ma'lumotlar qo'llanilgan.